O’zbekistonda 2019-yilda o’tkazilgan arxeologik tadqiqotlarga bag’ishlangan hisobot sessiya

Yurtimiz hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, ya’ni qazish, dala qidiruv va buzilishi kutilayotgan yodgorliklarda olib borilgan nazorat ishlarining natijalariga bag’ishlangan arxeologlarning yillik hisobot sessiyasi har yili an’anaviy ravishda o’tkazilib kelinmoqda. Bu mutaxassislarning yangi tadqiqotlarlar natijalar, ularining ilmiy tahlili borasida o’zaro fikr va tajriba almashish imkoni tug’diradi. Shu munosabat bilan O’zR FA Milliy arxeologiya markazi filiali – Ya. G’ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutida joriy yil 12-13-mart kunlari 2019-yil arxeologik dala mavsumi natijalariga bag’ishlangan hisobot sessiyasi bo’lib o’tdi.

Ikki kun davom etgan hisobot sessiyasida O’zR FA Milliy arxeologiya markazi, San’atshunoslik instituti, Tarix instituti, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Qoraqalpog’iston gumanitar fanlar ilmiy-tekshirish instituti ilmiy xodimlari bilan birgalikda SamDU, O’zMU, TemDU, QDU, NamDU, Jizzax davlat pedagogika instituti kabi oliy ta’lim muassasalari professor o’qituvchilari, magistrlar ishtirok etishdi. Yig’ilishda respublikaning barcha hududlarida tosh davridan tortib to so’nggi o’rta asrlargacha bo’lgan 50 ga yaqin arxeologik yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar natijalari hamda bir qator tumanlarda arxeologik yodgorliklarni qayta xatlovdan o’tkazish, ya’ni ro’yxatga olish borasida amalga oshirilgan ishlar bo’yicha ma’ruzalar eshitildi.

Unda tinglangan har bir hisobot mutaxassislar tomonidan qizg’in kutib olinib, munozaralarga juda boy bo’ldi, keng muhokama qilindi va qo’lga kiritilgan moddiy ashyolar Markaziy Osiyo arxeologiyasini rivojida, ya’ni ilk dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati, san’ati, hunarmandchilik, me’morchilik va ilk sivilizatsiyalar tarixini yoritishda muhim manba bo’lib xizmat qilishi ta’kidlab o’tildi.

Hisobot sessiya yakunida arxeologik tadqiqotlarni natijalariga bag’ishlangan “O’zbekistonda arxeologik tadqiqotlar” to’plamining navbatdagi sonini nashr qilish, arxeologik qazishma ishlariga yoshlarni keng jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, arxeologik tadqiqotlarga zamonaviy texnologiyalar va uslublarni qo’llash bo’yicha bir qator takliflar berildi.